

**MUSTAQILLIKKA ERISHISH ARAFASIDA O'ZBEKISTONDAGI  
IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR.**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika  
Instituti maktabgacha ta'lif yo'nalishi  
1-bosqich talabasi  
Shomurodova Sevinch To'lqin qizi.  
Hakimova Yulduz Shuhrat qizi.  
Jovliyeva Dildora Ilhom qizi.*

**Annotatsiya.**

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining Mustaqillikka erishish arafasida ijtimoiy – siyosiy , iqtisodiy – ma'naviy hayotidagi inqirozli holatlari batafsil yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy – ma'naviy , an'analar , madaniyat , sotsialistik , urf-odatlar.

**Kirish.** Ilm taraqqiy etishi uchun sarflangan invistitsiyalar ortig' bilan qoplanishiga shubha yo'q.

*SH.M.Mirziyoyev.*

O'zbek xalqining milliy ozodlik kurashi 30-yillarning o'rtalariga kelib sovetlar saltanati kuchlari tomonidan shafqatsizlarcha bostirilgan bo'lsada, xalqimizning qalbida, uning ongi shuurida istiqlol uchun, mustaqillik uchun mustamlakachi. kelgindi zolimlarga qarshi kurash g'oyasi zarracha bo'lsada so'ngan emas. Bu kurash dahshatli jahon urushi yillari (1939-1945)da ham, urushdan keyingi davrda ham turli ko'rinish, shakl va usullarda, goh ochiqchasiga, goh yashirinchcha olib borildi. Ayniqsa, bu kurash 80-yillarda o'zining yangi bosqichiga kirdi.

Vatan tarixining usbu davrga qadar bosib o'tilgan o'tmish shundan dalolat beradiki, istiqlol uchun kurash hamma vaqt O'zbekistonda bir-biridan mustaqil ikki yo'nalishda olib borilgan. Birinchisi. diniy-islomiy yo'nalishda bo'lsa, ikkinchisi umumma'rifiy-siyosiy va demokratik yo'nalishdadir. Bu har ikkala yo'nalishning umuminushtarak maqsad yo'lida mustaqillik uchun kurashda birlashib harakat qilmaganligi, ko'p hollarda esa ikkinchi darajali muammo va masalalar atrofida kelisholmasdan biri-birini inkor etib kelganligi har ikkala yo'nalishning ham zaif tomonlaridan bo'lib, undan mustamlakachi kuchlar ustalik bilan foydalanganlar. 80-yillarda ham bu jaravonda aytarlik o'zgarishlar bo'lgan emas. Sovetlar va kommunistik firqa Islom diniga qarshi «din xalq uchun afyundir» degan qoidani asos qilib oldi, milliy qadriyatlarimizga qarshi tinimsiz kurashdi. I.B.Usmonxo'jayev O'zKP XXI syezdida hisobot ma'rzasida bunday degan edi:

«Namangan viloyatida noxush diniy vaziyat hamon davom etib kelmoqda. Shu viloyatning shahar va rayonlarida ro'yxatga olinmagan diniy birlashmalar qonunga xilof ravishda ish ko'rib kelmoqda, o'smirlar va ayollarga gruppa-gruppa qilib diniy aqidalarni o'rgatish faktlari aniqlandi.O'zbekiston milliy mustaqilligi uchun kurashning ikkinchi yo'nalishi - umumma'rifiy harakat, siyosiy va demokratik erkinliklar uchun kurash tarafdarlaridir. Bu yo'nalishning asosini O'zbekiston ziyorolarining ilg'or taraqqiyparvar so'l qanoti tashkil etadi.

Xullas, ijodkor ziyorolar o'zlarining to'laqonli ijod durdonalari, badiiy-publisistik asarlari, shc'rlari va maqolalari bilan keng xalq ommasining qalblariga yetib bordilar, ularni razolat va g'aflat uyqu-sidan uyg'otdilar. Ana shu milliy uyg'onish jarayonida 1988-yil, 11-noyabrda O'zbekiston tabiat, ma'naviyati va moddiy boyliklarini muhofaza etish «Birlik» xalq harakati tashkiliy jihatdan uyushdi. 1989-yildan e'tiboran Islom Karimov hokimiyat tepasiga kelgach, uning siyosiy jasorati va kuchli vatanparvarlik, millatparvarlik his-tuyg'ulari tufayli bir qator ijobiy o'zgarishlar ro'yobga chiqarildi va bu mamlakatda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy tanglikni ma'lum darajada bo'lsada yumshatdi. Islom Karimovning quyidagi so'zlar bu borada e'tiborlidir: «Umuman, men birinchi kotib etib saylanganimda, O'zbekiston xalqi ruhiy shikasta holatida edi. Dcmak, ishni ruhiyatni tuzatishdan boshlash kerak.1989-yildan e'tiboran Islom Karimov hokimiyat tepasiga kelgach, uning siyosiy jasorati va kuchli vatanparvarlik, millatparvarlik his-tuyg'ulari tufayli bir qator ijobiy o'zgarishlar ro'yobga chiqarildi va bu mamlakatda vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy tanglikni ma'lum darajada bo'lsada yumshatdi. Islom Karimovning quyidagi so'zlar bu borada e'tiborlidir: «Umuman, men birinchi kotib etib saylanganimda, O'zbekiston xalqi ruhiy shikasta holatida edi. Dcmak, ishni ruhiyatni tuzatishdan boshlash kerak.Xalq - bu til, demak, qancha yillar mobaynida o'zbek tili o'z yerida ikkinchi toifadagi, iste'molchi uchun majburiy hisoblanmagan til bo'lib keldi, necha yillar davomida o'zbek rusning yonida o'zining tengsizligini, «katta og'a»ga qaramligini his etib keldi. Nima uchun bunga chidash kerak? Biz davlat tili to'g'risidagi qonunni qabul qildik, bu esa ko'z o'ngimizda o'zbeklarning milliy o'zini o'zi anglashini yaxshiladi»<sup>1</sup>.Ha, O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan 1989-yil, 21-oktabrda «O'zbekiston SSRning davlat tili haqida»gi Qonunning qabul qilinishi va o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi mamlakatdagi barcha demokratik va vatanparvar kuchlarning uzoq yillardan beri orziqib kutgan tarixiy g'alabasi bo'ldi. 1989 yil 21-oktabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonun xalqimiz milliy ongingin rivoj-lanishida, mamlakat mustaqilligining mustahkamlanishida, madaniy merosning tiklanishi va jamiyatning ma'naviy yangilanishida muhim rol o'ynadi.

Qonunning o'zbek tiliga Davlat tili maqomini berish to'g'ri-sidagi qoidalari keyinroq, 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasida

mustahkamlab qo'yilgan bo'lib, bu ko'pchilik aholining, respublikada yashovchi barcha millat va elatlarning namoyandalari tomonidan ma'qullandi va qo'llab-quvvatlandi. Davlat tili haqidagi Qonun qabul qilinganidan keyingi yillar mo-baynida respublikada katta ish qilindi. O'zbek tilini davlat hokimi-yati va boshqaruv organlarida, sudlarda, davlat notarial idoralarida qo'llash to'g'risidagi moddalar ro'yobga chiqarildi. Xalq ta'limi, fan sohalarida, ommaviy axborot vositalarida tub o'zgarishlar amalga oshirildi. Ko'plab tarixiy nomlar tiklandi, atamalar milliy til asoslariga muvofiq yangilana boshlandi. Davlat tili respublika ijtimoiy hayotiga chuqurroq kirib bordi. Ayni paytda boshqa milliy tillarni o'rganish va ulardan foydalanish uchun sharoitlar yaratildi. Til muammosiga jiddiy ilmiy-amaliy tarzda yondashuv ta'minlandi. Bu esa, qonun qabul qilish arafasida ayrim kishilarda pay do bo'lgan til muammolari atrofida, xususan, Davlat tili bilan bir qatorda rasmiy til ham e'lon qilinarmish, degan uydirmalar, soxtakorliklar va siyosiy o'yinlarni bartaraf etdi. Respublikada yashaydigan boshqa xalqlarning tillarini o'rganish va qo'llash erkinligi ta'minlanishi bilan birga O'zbekistonda aholining mutlaq ko'pchiligi foydalanadigan bitta davlat tili bo'lishi kerak, degan nuqtayi nazarga amal qilindi. O'zbekiston mustaqillikka erishish yo'lida (1989-1991 yy.)

Ma'lumki «qayta qurish» yillarida respublika aholisining asosiy qismi ni tashkil etgan dehqonlarning hayoti yanada yomonlashdi. Natijada qishloqlarda va bunga monand ravishda shaharlarda hayot juda og'irlashib ketdi. Bundan holi bo'lishning yagona yo'li yerga nisbatan bo'lgan siyosatni o'zgartirishdan iborat edi.

Shu bois Islom Karimov partianing agrar siyosatiga qarshi o'laroq dehqonlarni yer bilan ta'minlashni boshlab yubordi. Vaholanki barcha yer va suvlar davlatniki hisoblanib faqat markazning ruxsati ila unga munosabatni o'zgartirish mumkin edi.

«Avvalo, – deb yozadi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov fuqarolarni ijtimoiy jihatdan himoyalash borasida aniq ishlar qilish lozim. Biz 1989 yilni i yulidan beri ta'minlab kelayotgan barqarorlik esa ushshg kafolatidir. O'shanda, 1989 yilda dahshatli davr edi. O'sha paytda biz qilgan birinchi ish shu bo'ldiki, odamlarga yer bera boshladik. Men janob Gorbachevning davlat kengashi majlisidaga so'zlarni eslayman... Unga tan berish kerak, gapirishni biladi, ammo boshlagan nutqini nima bilan tugatishni hamisha ham tushunib bo'lmaydi. Mana bunga qaranglar, degan edi u meni ko'rsatib, hozir uni boshi shuhratga cho'lg'anib turibdi, u yer bera boshladi, endi uni ilohiyashtirishadi... Biz qat'iy turib tartib o'rnatdik – yerga muhtoj bo'lgan va, albatta, dehqonchilik qo'lidan keladigan, yerdan mo'l hosil ola biladigan har bir kishiga chorak gektar yer berdik. Kolxozsovxozi sharoitida bu jarayon yengil ko'chmadi». Ko'rinish turibdiki, Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov mar kazning noroziligiga qaramay mustaqil iqtisodiy siyosatga qaratilgan dastlabki qadamni tashlagan. Hech kimga sir emaski, paxta o'zbek xalqining kundalik hayoti va

taqdirini hal etuvchi muhim omillardan biridir. Tinimsiz va mashaqqatli mehnat evaziga yetishtirilgan paxta juda arzon narxda majburan davlatga topshirilgan. Mehnatiga yarasha haq ololmagan dehqonlar hamisha yetishmovchilik va muhtojlikda hayot kechirgan. Islom Karimov buni yaxshi anglagan holda paxta narxini oshirish masalasini ochiqdanochiq talab qildi. Xususan, u respublika kompartiyasi Markaziy qo'mitasining 1989 yil 19 avgustda bo'lib o'tgan XVI plenumida shunday degan: «Biz 1990 yil plani loyihasi bilan Ittifoq organlariga ikki marta uchrashdik. KPSS Markaziy Komiteti, mamlakat ministrlar Soveti va Gosplani rahbariyati bilan uchrashdik. Butun mas'uliyatni zimmamga olib, shuni aytu olamanki, paxta narxi masalasi yaqin oylar ichida kurib chiqiladi. Bu muammoni hal qilishimiz uchun hisobkitoblarga ko'ra, kamida bir yarim milliard sum talab qilinadi. Hozir, ochig'ini aytish kerak... Moskvada o'rta ga qo'ygan masalalarni hal qilish qiyin bo'lyapti.

Biz rahbarlar bu masalalarni qatiyat bilan, bilimdonlik bilan o'rta ga quyis himiz, ularning hal etilishiga izchillik bilan erishishimiz har qanday holda ham aybni birovlargaga tunkamay va birovlarning orqasiga yashirinmay, mas'uliyatni o'z zimmamizga olishimiz kerak». Sirtdan qaraganda paxtani narxini oshirish shunchaki bir oldiy iqtisodiy masala bo'lib ko'rinishi mumkin.

Ammo, uning zaminida, juda muhim siyosiy masala yetibdi. Chunonchi paxta ni arzon narhsa davlatga topshirilishi nafaqat kundalik turmushga, balki respublikaning ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda edi. Narxni oshirishga erishish sovet davlatining mustamlakachilik siyosatiga zarba berilishiga olib kelardi. Shubhasiz, ochko'zlik va to'ymaslikda nom chiqargan sovet davlatining paxta narxini oshirishga rozilik bildirishi juda qiyin edi. Shunga qaramay Islom Karimovning hukumatning siyosatiga qarshi bosh ko'tarishi vatanparvarlikning yorqin namunalardan biridir. 1989 yil 29 oktabrda o'zbek tilini Davlat tili sifatida qonunlashtirilishi ham alohida, ahamiyatga ega bo'ldi. Bu tarixiy hujjatning ahamiyati shu darajada katt aki, ta'riflashga qalam ojizlik qiladi. Shuni unutmaslik kerakki, ona tilining Davlat tili bo'lishi xalqning milliyligi va taqdirini kafolatlaydi hamda u mustaqillikning eng muhim belgilaridandir. 1990 yil 20 iyunda O'zbekistonda «Mustaqillik deklarasiyasи» e'lon qilinishi katta ahamiyat kasb etdi. U qizil imperiyani qattiq larzaga va tashvishga soldi. Chunki demokratiyada O'zbekiston Ittifoq tarkibida suveren va teng huquqli mamlakat deb e'lon qilinib, o'z davlat belgilari (gerb, bayroq va madhiya)ni ta'sis etish va yangi konstitusiyani ishlab chiqish vazifasi quyildi. Respublikada mustaqil iqtisodiy siyosatni ta'minlashga qaratilgan choralarни ko'rish davom etdi. Chunonchi, 1990 yil 30 oktabrda O'zbekiston mulkchilikning hamma shakllari uchun teng sharoitni ta'minlashga qaratilgan qonun qabul qilindi. Respublika Oliy Kengashi 1991 yil 14 iyunda «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar» to'g'risidagi qonuni ma'naviy hayotda

tub

o‘zgarishlarni, yasadi. Ma’lumki yuz yillar davomida kipshlarning e’tiqodi, hurmatini qozonib kelgan islom dini taqiqlanib «dinsiz jamiyat» bunyod etildi. Bu ma’naviy qashshoqlikni yuzaga keltirib taraqqiyotga salbiy ta’sir etdi. Shu bois o’sha qonunning qabul qilinishi xalq tomonidan zo‘r xursandchilik va mammuniyat bilan, qabul qilindi. «Ushbu qonun, – deyiladi unda, – fuqarolarning dinga o‘z munosabatini ixtiyoriy ravishda belgilash va ifodalash, hech qanday to’sqiniksiz, dinga e’tiqod qilish va diniy rasmrusumlarni bajarish huquqlarini ta’minlaydi». Shu tariqa sovet davrida oyoqosti qilingan va quvg‘inga solingan dinning barcha xillariga jon kirgizildi. 1991 yil 22 iyunda sanoat korxonalarini, tashkilotlarni va muassasalarini O‘zbekiston ixtiyoriga o‘tkazish xususida qonun chiqarildi. Asrimi zning 80-yillarda qizil imperiya ichichidan chirib, inqirozni boshidan kechirmoqda edi.

Uning belgilari 60yillardayoq boshlanib qanchalik vaqtarning o‘tishi bilan shunchalik ko‘p chuqurlashib bordi. «80-yillarda, – deb yozadi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, – iqtisodiy inqirozning kuchayib borish sabablarini ochish, uni bartaraf etish yo’llarini topish borasidagi o‘rinishlar ham muvaffaqiyatsizlikk auchradi. Ishlab chiqarish sur’atlarining pasayishi sabablari rivojlanishning ekst ensiv omillari tugaganligidadir, deb yuzaki tushunilganligi ustuvor tarmoqlarni alohida ajratmasdan, xalq xo‘jaligining barcha sohalarini bir vaqtning o‘zida rivojlantirish to‘grisida noto‘g‘ri qaror qabul qilinishiga sabab bo‘ldi. Bu hol, pirovard natijada, cheklangan mablag‘larning parokanda bo‘lib ketishiga, moliya va ta’mintizimining batamom izdan chiqishiga olib keldi, inqirozni chuqurlashtirdi, qayta qurish siyosati davrida iqtisodiyetda juda kuchli bo‘zilishlar ruy berdi».

Shu tariqa «sosializm» tuzumi o‘zining g‘ayritabiyligi va samarasizligini namoyish etib, mamlakatni halokat yoqasiga keltirdi. Odadtagidek kompartiya qatag‘onlar o‘tkazish yo‘li bilan chetdan «aybdorlar»ni topib va xalqni chalg‘itib inqirozni xaspo‘splash va niqoblashga o‘tdi. Ma’lumki 30yillardagi o‘charchilik va umuman inqirozning sabablari «xalq dushman»lari va «imperiyalistlarning ayg‘oqchilari»ga to‘nkalib, ommaviy qatag‘onlar vahshiylarcha o‘tkazilgan. Qayta qurish yillarda ham xuddi mana shunday siyosat qaytarildi, chunonchi O‘zbekistonda «paxta ishi» yoki «o‘zbek ishi» nomida qatag‘on o‘tkazildi. Bu yerda shuni hisobga olish kerakki, «o‘zbek ishi» aslida niqoblangan siyosiy kurash bo‘lib, maqsad mustamlakachilik va ulug‘millatchilik siyosatini yanada avjiga mindirish, xalqni og‘ir ahvoldan chalg‘itishdan iborat edi. Bu siyosiy nayrangning iqtisodiy tomoni ham bor edi. Markazga O‘zbekistondan daryo kabi oqib borayettan turlituman boyliklarni yanada ko‘paytirish va ularni zarrachasini ham tub aholiga yuqtirmaslik ko‘zlangan. Bundan tashqari, «o‘zbek ishi» vositasida mamlakatda O‘zbekistonni ishonchni yo‘qottan xavfli zona sifatida gavdalantirib Rossiyadan kadrlarni – o‘z odamlarini keltirishni va respublika

hokimiyat tarmoqlarini tamomila egallashni maqsad qilib quyildi. Ayni paytda bir chemodan bilan keladigan o'sha «ustoz»larning katta boylik to'plashlari uchun sharoit yaratish nazarda tutildi. Bu respublika boyliklarini navbatdagi uzlashtirishning bir turi edi. Umr bo'yli dahshatli fojealarni uyuştirishga, qirg'inbarotlarga va tusto'polonlarga tuymagan markaz «o'zbek ishi» bo'yicha 4,5 ming kishini qamoqqa tashladi, xurladi va mol-mulkini taladi. Bundan tashqari minglab kishilar «guvoh» sifatida qattiq qiynoqlar ostiga olinib, qipqizil tuhmatdan iborat, aybnomalarni, to'qidi. Hatto «o'zbek ishi»dan keyin ziyelilarning va rahbar larning ilg'or vakillari ham ommaviy ravishda qatag'on qilinar emish degan ovozlar eshitilib turdi. Butun millat boshiga dahshatli ofat kelib turgan paytda, unga qarshi qalqon bo'ladigan birorta rahbar chiqmadi. Aksincha, ular sotqinlik qilib olovga kerosin qo'yib turdilar. Islom Karimov davlat tepasiga kelishi arafasida ahvolni quyidagicha ta'riflagan edi: «Bor gapni aytadigan bo'lsam, kuz o'ngimda dahshatli, qurqinchli manzaralar paydo bo'ldi». Islom Karimov bu g'oyatda og'ir ahvoldan cho'chimay va tislanmay, mazlum xalq manfaati uchun kurashdi. U «o'zbek ishi»ning soxtaligini fosh etib, millatni ofat va navbatdagi ommaviy qa tag'ondan qutqardi. U bu xususdagi markazning ko'rsatmasini bajarishdan ochiqdanochiq bosh tortib, mustaqil siyosat yurgizdi. O'zbekistonning o'z suvereniteti uchun kurashi, avvalo, respublikada qabul qilingan har bir qonunning mazmuni va mohiyati jihatidan sobiq Ittifoq qonunlaridan tubdan farq qilishida, bundan tashqari, har bir qonun avvalgidek Ittifoq qonuniga moslashtirib emas, balki respublika manfaati ifoda etilganligi bilan ajralib tura boshladi. Xusan, 1991 yilning 22 iyulida O'zbekiston SSR Oliy Kengashi Prezidiumining «O'zbekiston SSR hududida joylashgan Ittifoqqa bo'y sunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini O'zbekiston SSRning huquqiy tobelligiga o'tkazish» to'g'risida qabul qilgan qarori ham O'zbekiston SSR Prezidenti I.A. Karimov, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi va hukumati O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi, uning milliy suvereniteti uchun dadil qadamlar tashlaganligining isbotidir. Sovet imperiyasining tanazzulga yuz tutishi. 1991 yilning aprel oyiga kelib, Markaz o'zining ta'sir doirasini saqlab qolish maqsadida mustaqil davlatlar ittifoqini tuzishga intildi. 1991 yil aprelda Novo-Ogoryovoda SSSR Prezidenti M.S. Gorbachevning 9 respublika rahbarlari bilan uchrashuvi bo'ldi. Ishtirokchilar tomonidan «Mamlakatdagi vaziyatni barqarorlashtirish va tanglikni bartaraf etishga doir kechiktirib bo'lmaydigan Choralar to'g'risida» qo'shma Bayonet imzolandi. Uning mazmuni markazning yon bergenini, Kiyevda bildirilgan fikr-mulohazalarga rozi bo'lganini ko'rsatadi. 1991 yil iyul oyining oxirlarida Novo-Ogoryovoda yangi shartnoma loyihasini uzil-kesil taylorlash uchun Markaz vakillari va Respublika rahbarlarining uchrashuvi bo'ldi. Markazni ham, Respublikalar rahbarlarini ham qanoatlantiradigan «Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risida shartnoma» loyihasi tayyorlandi. Ammo hamma rozi bo'lGANI

holda «Mustaqil Davlatlar Ittifoqi to'g'risidagi shartnomaga»ni imzolash 1991 yil 20 avgust kuniga qoldirildi. SSSR Prezidenti M.S. Gorbachev Foros (Qrim)ga dam olish uchun jo'nab ketdi. Biroq ittifoqning kompartiya va markaziy davlat apparatidagi bir necha nufuzli rahbarlar markazning yakka hokimligini cheklaydigan va kamida olti respublikani Ittifoqdan chetda qoldiradigan bu shartnomaga qo'shila olmadi. Bu rahbarlar oliy hokimiyat mahkamalaridagi asosiy lavozimlarni egallab turar edi. Prezident M. Gorbachev dam olishga ketganidan foydalanib, ular 1991 yil 18 avgust kuni tayyorlangan va 19 avgustda matbuotda e'lon qilingan «Sovet rahbariyatining Bayonoti»da M.S. Gorbachevning salomatligi yomonlashdi, shu sababli uning SSSR Prezidenti vazifalarini ijro etish imkoniyati yo'q, degan soxta axborot bilan chiqdilar. Bayonotda Prezident vakolatlari vitse-prezident G.I. Yanayevga o'tkazilganligi e'lon qilindi. O'zbekiston Prezidentining 1991 yil 25 avgustdagи Farmoniga binoan Respublika ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi qo'mitasi qonuniy ravishda O'zbekiston tasarrufiga olindi. Respublika hududida joylashgan SSSR ichki ishlar vazirligining ichki qo'shinlari bevosita O'zbekiston Prezidentiga bo'ysundirildi. Respublika ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik qo'mitasi, prokuraturasi, adliya organlari, ichki qo'shinlar, Turkiston harbiy okrugi qismlari va qo'shilmalari partiyadan butunlay xoli qilindi. Mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda O'zbekiston Respublikasining Mustaqillikka erishish arafasida ijtimoiy – siyosiy , iqtisodiy – ma'naviy hayotida bazi bir inqirozlarga uchragan. O'zbekiston SSR Prezidenti I.A. Karimov, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi va hukumati O'zbekistonning siyosiy-iqtisodiy mustaqilligi, uning milliy suvereniteti uchun dadil qadamlar tashlaganlar. Mustaqillik yillarda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi.

### **Adabiyotlar ro'yxati .**

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: O'zbekiston. 2017.
2. Annayev T., Tilovov B., Xudoyerberdiyev Sh. Boysun arxeologik yodgorliklari. – T., 2008
3. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand, 2001.
4. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – T., 2007
5. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – T., 2014.